

“QUVONCH” KONSEPTINING FRAZEOLOGIK BIRIKMALAR VA MAQOLLARDA AKS ETISHI

Tolipova Zaxroxon

Qo‘qon shahar 5-sonli texnikumining Ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi Zaxroxon755@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikning eng faol yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiya nuqtai nazaridan “quvonch” konseptining tabiati tadqiq etiladi. Inson hissiyotlarining eng yorqin ifodasi bo‘lgan quvonch tushunchasi o‘zbek xalqining dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va mentaliteti bilan uzviy bog‘liqdir. Maqolada o‘zbek tilidagi frazeologik birikmalar (iboralar) va maqollar tahlili orqali quvonch his-tuyg‘usining lisoniy va semantik xususiyatlari, uning metaforik ko‘chishlari va xalq og‘zaki ijodidagi o‘rni yoritib berilgan. Tadqiqot davomida quvonch konseptining shakllanishida milliy-madaniy omillarning roli aniqlangan

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, konsept, quvonch konsepti, frazeologik birikma, maqol, mentalitet, semantika, milliy-madaniy xususiyatlar.

Аннотация: В данной статье исследуется природа концепта “радость” с точки зрения лингвокультурологии — одного из наиболее актуальных направлений современного языкознания. Понятие радости, являющееся ярким выражением человеческих эмоций, тесно связано с мировоззрением, культурными ценностями и менталитетом узбекского народа. На основе анализа фразеологических единиц (идиом) и пословиц узбекского языка в статье раскрываются языковые и семантические особенности выражения чувства радости, его метафорические переносы и место в фольклоре. В ходе исследования определена роль национально-культурных факторов в формировании концепта “радость”.

Ключевые слова: лингвокультурология, концепт, концепт “радость”, фразеологический оборот, пословица, менталитет, семантика, национально-культурные особенности.

Abstract: This article explores the nature of the concept of “joy” from the perspective of linguacultural studies, one of the most active fields in modern linguistics. The notion of joy, which is the most vivid expression of human emotions, is inextricably linked to the worldview, cultural values, and mentality of the Uzbek people. Through the analysis of Uzbek phraseological units (idioms) and proverbs, the paper highlights the linguistic and semantic features of the feeling of joy, its metaphorical extensions, and its place in folklore. The study identifies the significant role of national and cultural factors in shaping the concept of “joy”.

Keywords: linguacultural studies, concept, concept of “joy”, phraseological unit, proverb, mentality, semantics, national and cultural characteristics.

Frazeologik birliklar so‘z birikmalaridan farq qilib, majoziy ma‘noni ifodalovchi turg‘un birikmalar hisoblanadi. Ular nutq jarayonida qo‘llanilar ekan, ma‘noning

bo'yoqdorligini oshirishda hamda obrazli ifodalashda yordam beradi. Frazеologik birliklar haqida Sh.Rahmatullayev adabiyotlarda ushbu til birligini frazeologizm, frazeologik birlik kabi terminlar bilan atalishini leksema, morfema terminlariga monand ravishda frazema deb atalishini ma'qullaydi⁹ hamda Sh.Rahmatullayev frazemani kamida ikki leksemadan tarkib topishini ta'kidlaydi¹⁰. Masalan: Sh.Rahmatullayevning qarashlarida frazema ikki va undan ortiq leksema o'zaro semantik-sintaktik bog'lanib, umumlashma ko'chma ma'no kashf etishi bilan yuzaga keladi. Frazеologik birliklarni olim A.A.Abduezizov uch turli ya'ni frazeologik qo'shilmalar tarkibidagi bir so'z to'g'ri, ikkinchi so'z esa ko'chma ma'noda bo'lib birikkan iboralar, masalan, hordiq (to'g'ri ma'noda) chiqarmoq (ko'chma ma'noda); frazeologik butunliklar tarkibidagi so'zlarning ma'nolari va grammatik jihati birikib umumiy ko'chma ma'no beruvchi iboralar, masalan, eti suyakka yopishgan (ozg'in); frazeologik chatishmalar tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan ibora ifoda etgan ma'no o'rtasida hech qanday leksik aloqa sezilmagan frazeologizmlar bo'lib, bularga misol sifatida sichqonning inini ijaraga olmoq kabilar¹¹ ekanligini qayd etadi.

Frazеologik chatishmalarni V.V.Vinogradov ularning ma'nosi tarkibiy qismlarining ma'nosi bilan hech qanday bog'liqlik, hatto salohiyatga ega emasligini¹², N.M.Shanskiy ham frazeologik chatishmalarni semantik jihatdan bo'linmaydigan, uning integral ma'nosi tarkibiy qismlarining ma'nolariga mutlaqo mos kelmasligini¹³ o'z qarashlarida aks ettiradi. Frazеologik butunlik, A.V.Kuninning so'zlariga ko'ra, V.V.Vinogradov leksik komponentlar ma'nolarining qo'shilib ketishidan kelib chiqadigan yagona yaxlit ma'noga ega bo'lgan motivatsiyalangan birliklar ekanligini¹⁴ ta'riflaydi hamda N.M.Shanskiy ham bu semantik jihatdan bo'linmaydigan va yaxlit frazeologik ibora bo'lib, uning ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan motivatsiyalangan bo'lishini, shuningdek, frazeologik birlikning ajralmas ma'nosi uni tashkil etuvchi so'zlarning ma'nolarining yagona umumlashgan ko'chma ma'noga qo'shilib ketishi natijasida vujudga kelishini¹⁵ tushuntiradi. Sh.Rahmatullayevning so'zlariga ko'ra, lisoniy birlik sifatida frazema ikki jihatning ya'ni ifoda jihatining va mazmun jihatining bir butunligidan iborat¹⁶. H.Jamolxonov frazemaning ifoda plani deganda uning tovush tomoni, leksik tarkibi, birikmaga yoki gapga teng konstruksiyasini, frazemaning mazmun planida esa uning nimanidir nomlashi, ifodalashi, anglatishini nazarda tutadi. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni xulosa qilish mumkinki, frazeologiyaning turfa xillari, ko'p sonli ifodalari tilshunos va yozuvchilar tomonidan qo'llanilishi, uning majoziy va uslubiy ma'no bo'yoqdorligining xilma-xilligi bilan tilshunoslikda ahamiyatli hisoblanib, shakl va ma'nosini chuqurroq o'rganilishini talab qiladi. Shu sababli, frazeologik birliklarni

⁹ Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.: Sharq, 2010. – B.79

¹⁰ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiyoti: darslik. – T.: Universitet, 2016. – B.420.

¹¹ Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.: Sharq, 2010. – B.79

¹² Виноградов В.В. Избранные Труды. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – С.121-138.

¹³ Шанский Н. М. Фразеология современного русского языка: Учеб. пособие для вузов по спец. "Русский язык и литература". СПб.:— Специальная Литература, 1996. – С.65-68.

¹⁴ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз.– М.: Высш. шк., Дубна: Изд. Центр "Феникс", 1996. – С.12.

¹⁵ Шанский Н. М. Фразеология современного русского языка: Учеб. пособие для вузов по спец. "Русский язык и литература". СПб.:— Специальная Литература, 1996. – С.65-68.

¹⁶ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiyoti: darslik. – T.: Universitet, 2016. – B.420.

turlarga ajratgan holda o'rganish tilshunoslikka oid tadqiqotlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Frazeologik birliklar (iboralar) tilda inson ruhiy holatining eng nozik qirralarini, xususan, quvonch konseptini yorqin, obrazli va emotsional bo'yoqdorlik bilan ifodalashga xizmat qiladi. O'zbek tilida quvonch konsepti ko'pincha insonning jismoniy harakatlari, tana a'zolari (antropotsentrizm) va tabiat hodisalari bilan bog'liq iboralarda aks etadi.

1. Quvonch konseptining somatik (tana a'zolari) iboralarda ifodalanishi O'zbek xalqining milliy mentalitetida quvonch ko'pincha ko'z, og'iz, tana va qalb holati orqali tasvirlanadi:

Og'zi qulog'ida: Insonning haddan tashqari xursandligini, chehrasidan baxt oqib turganini ifodalovchi eng ommabop ibora.

Ko'zi quvnamoq: Biror yoqimli narsani ko'rib, ruhan zavqlanish, xursand bo'lish.

Dili ravshan bo'lmoq: G'uborlardan xoli bo'lib, ichki bir xotirjamlik va shodlikka erishish.

Boshi ko'kka yetmoq: O'zini juda baxtiyor his qilmoq, yuksak natijadan yoki xushxabardan g'ururlanib quvonish.

Terisiga sig'may ketmoq: Shodlikning ko'lamidan hayajonlanib, o'zini tuta olmaslik holati. Quvonchning harakat va holat iboralaridagi aksi

Ba'zi iboralar quvonchni dinamik harakatlar orqali metoforik tarzda ochib beradi:

Do'ppisini osmonga otmoq: Biror muvaffaqiyatdan yoki kutilgan xabardan behad shodlanish (asosan erkaklarga xos milliy bo'yoqdorlikka ega ibora).

Oyog'i yerga tegmay qolmoq: Shodlikdan sarmast bo'lib, o'zini qushdek yengil his qilish, biror manzilga xursandchilik bilan shoshilish.

Yuragi qinidan chiqib ketay deyish: Kuchli quvonchli hayajondan yurak urishining tezlashishi.

Olam-olam shodlik olmoq: Juda katta ma'naviy zavq va baxtga erishish.

"Barakalla" so'zi odatda kimningdir yaxshi ishi, yutug'i yoki mahoratini taqdirlashda ishlatiladi. Bu o'z navbatida, quvonchni ifodalovchi birlik hisoblanadi. Bu so'zni eshitgan inson, ayniqsa, biror murakkab vazifani bajargan bo'lsa, o'zidan faxrlanish, natijadan qoniqish hosil qiladi. Bu esa ichki quvonch hissining shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu parchada "Barakalla" so'zi nafaqat maqtov, balki quvonch hissini uyg'otish vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. "Oppoq soqoli ko'ksiga tushgan kitobdor ibn Sinoni mamnunlik bilan qarshi olib, o'z qo'l ostidagi boyliklar bilan tanishtirib chiqdi. Har bir hujrada bir fanga doir kitoblar saqlanar, qator-qator sandiqlar kitob bilan liq to'la edi. Kitobdor har bir hujraning qulfini ochib, bunda qanday kitoblar borligini aytar edi. U sandiq ochib nodir qo'lyozma asarlarni ko'rsatar ekan, ibn Sinoning ko'zlari chaqnab ketar edi" (Mirkarim Osim Ibn Sino qissasi "O'zbekiston" Toshkent-2022 233b)

Yuqoridagi keltirilgan parchada "ko'zlari chaqnab ketdi" iborasi orqali qahramonning quvonchi ifodalangan. Xalqimizda bu ibora orqali orzusidagi maqsadga erishgandagi holati ko'z ifodalarini ibora yordamida tasvirlangan. Inson faqat quvongan

va xursand holatida ko'zlari quvonchdan chaqnaydi. Xafa va mahzun holatida ko'zlari chaqnadi deya olmaymiz.

“Oradan ikki oycha vaqt o'tdi. Shu vaqtgacha o'zini qo'yarga joy topolmay yurgan ibn Sino bir kuni uyiga xursand bo'lib keldi.

-Suyunchi bering onajon. Qorabug'roxon qo'shini Buxoroni tashlab chiqib ketmoqda. Qo'liga yarog' olgan Buxoro xalqi turkmanlar bilan birlikda ularni haydab chiqarmoqda, talab olingan mollarini qaytarib olmoqda”.

Ushbu parchada qahramon ruhiy holati, kayfiyati “suyunchi bermoq” iborasi orqali ifodalangan. Xalqimizda suyunchi berish, asosan, quvuchli, kutilgan voqeani yetkazish va buning evaziga sovg'a yoki mukofot olish ma'nosida qo'llaniladi. Bu ibora ko'pincha, shodlik, hayajon, va xushxabar bilan bog'liq bo'lib, xalq orasida keng qo'llaniladi.

“O'tkan kuni ko'chada sizni ko'rib qoldim. Ko'zlaringizda o't yonib turibdi. Bundan yigirma yil avval ko'zlaringiz shunday edi. Ko'rib, hayron bo'ldim. Bilsam, ota bo'libsiz. Bu qanday baxt, bu qanday baxt! Sevinchdan yuragim yorilay dedi. Yotib uxlolmadim. Tong otguncha ko'rgan kunlarimizni eslab chiqdim. Qandoq totuv yashadik!” (Said Ahmad Turkiy adabiyot durdonalari “O'zbekiston” Toshkent-2022 383-b)

Ushbu parchada “sevinchdan yuragi yorilay dedi” iborasi tilimizda quvonchni ifodalovchi birlik bo'lib, insonning haddan tashqari quvonchga to'lgan holatini tasvirlaydi.

“Sevinch” – quvonch, shodlik, baxtiyorlik holati. “Yurak” – hissiyotlar markazi sifatida ishlatiladi. Sevgi, quvonch, qo'rquv kabi tuyg'ular yurak bilan bog'lanadi.

“Yorilay dedi” – mubolag'ali tarzda his tuyg'ular haddan tashqari ketganini ifodalaydi.

Quvonch konsepti doirasida bu ibora quyidagi jihatlarni qamrab oladi: Sevinch oddiy emas, balki balki shunchalik kuchli bo'ladiki, yurak yorilishi darajasiga yetadi. Real hayotda yurak quvuchdan yorilmaydi, lekin his-tuyg'ularni ortiqcha ta'sirchan qilib ko'rsatish uchun shunday ishlatiladi. O'zbek tilida hissiyotlar tana a'zolari bilan bog'lanadi. “Sevinchdan yuragi yorilay dedi” iborasi quvonch konsepti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, hissiyotlarning kuchayishi, yurak orqali tasvirlanishi va mubolag'a asosiga qurilgan. Bu ibora o'zbek madaniyati va quvongan holatining tasviriy ifodalarining yoqin namunasi.

“Shoxiga katta lampochka osilgan tut tagidagi supada yoshi oltmishlardan oshgan bir notanish odam o'tirardi. Uning ko'zlari.....bundan o'ttiz ikki yil oldingi Bo'rixonning ko'zlari edi. Kampir, voy bolam, deb unga talpindi. Supaga yugurib bordimi, bilmaydi. Bag'rida o'g'lini ko'rdi. Undan aroq sham yoqilgan uyning hidi kelardi. Kampir buni sezmasdi. G'oyibining hozir bo'lganidan mast-alast edi. Karaxt edi. Baxtiyor edi. O'g'lining boshlariga, yelkalariga ko'z yoshlari to'kilardi”.

“Quvonchdan ko'z yoshlari to'kildi” iborasi quvonch konsepti nuqtayi nazaridan inson hissiyotlarining jismoniy ifodasi sifatida tahlil qilinishi mumkin. Bu iborani kengroq o'rganganimizda quyidagicha ma'nolarga duch kelamiz.

“Quvonch” – ichki mamnunlik, shodlik, baxt hissidir. “Ko'z yoshlari” – odatda, qayg'u, dard belgisi, lekin ba'zan haddan tashqari quvonch ham ko'z yoshlarini chiqarishi

mumkin. “To’kildi” – ichki hissiyotning tashqi jismoniy namoyon bo’lishi, ya’ni yig’lash. Haddan tashqari quvonch: quvonch shunchalik kuchliki, inson uni jilovlay olmaydi va his tuyg’ular ko’z yoshlar orqali namoyon bo’ladi. Ushbu parchada kampir yillar davomida kutgan o’g’lini bag’riga bosganda, naqadar xursand bo’lgan holati tasvirlangan. Quvonchini jilovlay olmaydi, natijada ko’z yoshlari qahramon sevinchini ifodalaydi.

Barchamizga ma’lumki tilda insonlar hayotida foydalaniladigan so’zlar ifodalanadi.

Odatda insonlarda eski narsadan yangi narsa yasash qobiliyati bor. Insoniyatning shunday g’ayritabiiy holatini imkoni boricha sodda yoki keng tushuntirib berish maqsadida metaforadan ham foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.: Sharq, 2010. – B.79
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o’zbek adabiyoti: darslik. – T.: Universitet, 2016. – B.420.
3. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.: Sharq, 2010. – B.79
4. Виноградов В.В. Избранные Труды. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – С.121-138.
5. Шанский Н. М. Фразеология современного русского языка: Учеб. пособие для вузов по спец. “Русский язык и литература”. СПб.:— Специальная Литература, 1996. – С.65-68.
6. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз.– М.: Высш. шк., Дубна: Изд. Центр “Феникс”, 1996. – С.12.
7. Шанский Н. М. Фразеология современного русского языка: Учеб. пособие для вузов по спец. “Русский язык и литература”. СПб.:— Специальная Литература, 1996. – С.65-68.
8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o’zbek adabiyoti: darslik. – T.: Universitet, 2016. – B.420.